



BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma'lumot
2025- yil yanvar-fevral***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi***

Tel. 65-223-75-63

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral oylari, foizda)




2025- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 097 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 65 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 13 032 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-fevral, mlrd. so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 116,9 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida

(2024- 2025- yillar, foizda)



2024-y.

2025-y.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati 107,5 % ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 3 042,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 308,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 100,9%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 2 734,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 108,4%), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 337,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 116,9 %) tashkil etdi.


Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral oylari)

	Jami, mlrd. so'm *	2024- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	3 042,4	107,5
Buxoro shahri	784,4	113,3
Kogon shahri	92,3	110,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	72,4	105,7
Buxoro	197,2	110,4
Vobkent	98,4	103,8
G'ijduvon	548,9	104,2
Kogon	113,4	85,1
Qorako'l	239,9	105,8
Qorovulbozor	72,9	110,0
Peshku	102,5	105,1
Romitan	208,3	110,5
Jondor	167,9	106,2
Shofirkon	190,5	105,0

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar-fevral oylarida 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatining Buxoro shahri (113,3%), Romitan tumani (110,5 %), Buxoro tumani (110,4 %) va Kogon shahri (110,4 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Buxoro shahri 27,2 % bilan 784,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Olot tumani 2,5 % bilan 72,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Buxoro sh.	784,4
G'ijduvon	548,9
Qorako'l	239,9
Romitan	208,3
Buxoro	197,2
Shofirkon	190,5
Jondor	167,9
Kogon	113,4
Peshku	102,5
Vobkent	98,4
Kogon sh.	92,3
Qorovulbozor	72,9
Olot	72,4




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar-fevral oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 2 734,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 8,4 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,9 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 0,9 % ga o'sdi va 308,4 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,1 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorovulbozor (99,6 %), Buxoro (99,4 %) va Romitan (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Buxoro shahri (28,0 %), Kogon shahri (5,1 %) va Peshku tumanida (19,6 %) kuzatildi.




■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2025- yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 476,5 ming so'm (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 105,7 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (2 637,6 ming so'm), Qorovulbozor (3 624,7 ming so'm) va G'ijduvon (1 688,9 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral), foizda



- Dehqon bozorlari



- Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar-fevral)**

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	337,9	116,9
Buxoro shahri	60,3	136,1
Kogon shahri	11,0	97,8
<i>tumanlar:</i>		
Olota	16,1	101,4
Buxoro	8,9	250,3
Vobkent	31,9	109,5
G'ijduvon	51,3	122,7
Kogon	0,6	62,9
Qorako'l	55,4	115,7
Qorovulbozor	11,6	195,5
Peshku	21,1	101,9
Romitan	30,8	150,0
Jondor	18,0	84,3
Shofirkon	20,9	81,3


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2025- yil yanvar-fevral)















Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2025- yil yanvar-fevral)



Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 337,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 116,9% ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 146,3 mlrd. so'mni (118,6%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 191,6 mlrd. so'mni tashkil etdi (115,6 %).












2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 146,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (78,5 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>78,5 mlrd. so'm</p>  <p>53,6 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>14,8 mlrd. so'm</p>  <p>10,1 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>8,3 mlrd. so'm</p>  <p>5,7 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>4,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>12,5 mlrd. so'm</p>  <p>8,5 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>4,2 mlrd. so'm</p>  <p>2,9 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>2,7 mlrd. so'm</p>  <p>1,8 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>0,6 mlrd. so'm</p>  <p>0,4 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>3,9 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>1,2 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>10,2 mlrd. so'm</p>  <p>7,0 %</p>

2025- yilning yanvar-fevral oylarida, viloyatining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 191,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 164,7 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 26,1 mlrd. so'mni, otlar – 0,4 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,4 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>104,0 mlrd. so'm</p>  <p>54,3 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>40,0 mlrd. so'm</p>  <p>20,9 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>20,7 mlrd. so'm</p>  <p>10,8 %</p>	
<p>Qo'ylar</p> <p>19,9 mlrd. so'm</p>  <p>10,4 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,4 mlrd. so'm</p>  <p>0,2 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>6,2 mlrd. so'm</p>  <p>3,2 %</p>	
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,2 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>	
<p>Qushlar</p> <p>0,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,0 %</p>			

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 539 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 534 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd. so'm *	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	1 462,1	109,7
Buxoro shahri	70,5	113,7
Kogon shahri	3,3	105,1
<i>tumanlar:</i>		
Olot	2,3	103,1
Buxoro	6,1	108,2
Vobkent	8,2	116,3
G'ijduvon	11,7	104,2
Kogon	2,4	101,8
Qorako'l	6,0	104,3
Qorovulbozor	4,5	103,1
Peshku	2,4	104,1
Romitan	10,9	98,6
Jondor	4,5	102,8
Shofirkon	3,0	102,7

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yilning yanvar-fevral oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 462,1 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd. so‘m	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	519,2	100,0
Buxoro shahri	338,6	65,2
Kogon shahri	1,4	0,3
<i>tumanlar:</i>		
Olot	3,4	0,6
Buxoro	7,1	1,4
Vobkent	49,9	9,6
G‘ijduvon	72,6	14,0
Kogon	2,9	0,6
Qorako‘l	4,5	0,9
Qorovulbozor	0,7	0,1
Peshku	2,8	0,5
Romitan	2,5	0,5
Jondor	30,0	5,8
Shofirkon	2,8	0,5


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (338,6 mlrd. so‘m), Vobkent (49,9 mlrd. so‘m) va G‘ijduvon (72,6 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2025- yilning yanvar-fevral oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatishdan tashqari*) 519,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 30,5 % ga pasaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 334,1 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati – 63,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 185,1 mlrd. so‘m (o‘shish sur‘ati – 80,3 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os‘ish sur‘atlari, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 299,7 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 14,5 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 1 681,2 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 73,1 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd. so'm *	2024- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	2 299,7	114,5
Buxoro shahri	687,8	106,0
Kogon shahri	12,6	63,4
<i>tumanlar:</i>		
Olot	19,4	113,6
Buxoro	67,4	105,3
Vobkent	228,6	248,8
G'ijduvon	140,4	109,2
Kogon	105,5	99,2
Qorako'l	31,9	92,9
Qorovulbozor	53,9	103,4
Peshku	224,3	139,8
Romitan	145,2	100,6
Jondor	203,5	100,1
Shofirkon	16,2	106,6

* – norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda;

2025- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 197 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 26 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 171 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Buxoro shahri (164,0 %), G'ijduvon (160,5 %) va Vobkent (2,7 m.) tumanlarida kuzatildi.